



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



MIGRATSIYA MUAMMOSI VA UNI HAL ETISHGA DOIR NAZARIY-KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Durdona Madaminova

dosent, s.f.n.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, xavfsizlik, iqtisodiy migratsiya, energetika omili, demografik dinamika, gumanitar inqiroz, iqtisodiyot tarmoqlari, iqlim migratsiyasi, tabiiy omillar, transmilliy xususiyatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, immigratsiya, emigratsiya, reemigratsiya, repatriatsiya.

Annotatsiya: Migratsiyani o'ziga xos murakkab va turfa xilligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy fenomen sifatida ta'riflash mumkin. Odatda, migratsion oqimlar rivojlanish ko'rsatkichlari past bo'lgan davlatlardan nisbatan taraqqiy etgan, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan (masalan, oylik maoshi yuqori bo'lgan) mintaqqa va davlatlar tomon harakatlanadilar. Global miqyosdagi ko'chishlar o'z ko'lamiga ko'ra, rekord darajaga yetgan bo'lib, ayni paytda ichki ko'chirilganlarning umumiy soni 55 million kishini, qochoqlar soni esa, 26 millionni tashkil etmoqda. Garchand, xalqaro muhojirlar dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil etsada, davlatlar kesimida ularning turlicha namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Masalan, Saudiya Arabistoni kabi davatlardagi muhojirlar soni aholining 88 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunda 281 mln.dan ortiq shaxs, ya'ni dunyo aholisining 3,6% xalqaro migratsiya jarayonlariga jalb etilgan bo'lib, bu 1990 yil ko'rsatkichlari (128 mln)ga nisbatan 3 barobar ko'pdir. Shunga ko'ra, biz xalqaro migratsiyaga qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning demografik dinamikasi, mehnat bozori hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida e'tibor qaratish muhim, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda IT mutaxassislarning Belorussiya va Rossiyani ommaviy tarzda tark etishi mazkur davlatlarda ham xavotirga sabab bo'lmoqda. Yevropa davlatlari Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi qochoq ko'rinishidagi migrantlarning oqimi jadallahuvidan manfaatdor emas. Bu borada YeI 2015-yilda Turkiya bilan qochoqlarni Turkiya hududida tutib turish bo'yicha sharnnomaga ham imzolagan. Rossiyada mehnat migrantlari iqtisodiyot tarmoqlarini tanqis bo'lgan arzon ishchi kuchi bilan

ta'minlashga xizmat qilmoqda. Zero, COVID-19 pandemiyasi sharoitida chegaralar yopilishi oqibatida mamlakat iqtisodiyoti ishchi kuchi yetishmasligi bilan bog'liq maummolarni boshdan kechirdi. Shu bilan birga, migrantlar Rossiya uchun yuboruvchi davlatlarga bosim o'tkazish instrumenti sifatida ham imkon yaratmoqda. Demak, migratsiya va uning oqibatlari bu davlatlar tomonidan qaysi rakurs orqali baholanishiga bog'liqdir.

THEORETICAL-CONCEPTUAL APPROACHES TO THE PROBLEM OF MIGRATION AND ITS SOLUTION

Durdona Madaminova

docent, Ph.D.

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: *migration, security, economic migration, energy factor, demographic dynamics, humanitarian crisis, economic sectors, climate migration, natural factors, transnational features, international and regional organizations, emigration, immigration, reemigration, repatriation.*

Abstract: Migration can be defined as a social phenomenon characterized by its own complexity and diversity. Usually, migration flows move from countries with low development indicators to relatively developed regions and countries with high socio-economic indicators (for example, high monthly wages). Global displacement has reached record levels, with 55 million internally displaced people and 26 million refugees. Although international migrants make up 3.6% of the world's population, they can be seen in different ways across countries. For example, the number of immigrants in countries like Saudi Arabia is 88 percent of the population.

Today, more than 281 million people, i.e. 3.6% of the world's population, are involved in international migration processes, which is 3 times more than in 1990 (128 million). Accordingly, we believe that it is important to focus on international migration as a factor that directly affects the demographic dynamics, labor market and socio-economic processes of receiving and sending countries.

Today, mass exodus of IT professionals from Belarus and Russia is causing concern in these countries as well. European countries are not interested in the acceleration of the flow of refugees in the Middle East and North Africa. In this regard, in 2015, the EU signed an agreement with Turkey on the detention of refugees on the territory of Turkey. In Russia, labor migrants serve to provide economic sectors with scarce cheap labor. After all, due to the closure of the borders in the context of the COVID-19 pandemic, the country's economy experienced problems related to the lack of labor force. At the same time, migrants also create an opportunity for Russia to exert pressure on sending countries. Therefore, migration and its consequences depend on the perspective of these countries.

ТЕОРЕТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОБЛЕМЕ МИГРАЦИИ И ЕЕ РЕШЕНИЮ

Дурдона Мадаминова

доцент, PhD.

Ташкентский государственный университет востоковедения

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

миграция, безопасность, экономическая миграция, энергетический фактор, демографическая динамика, гуманитарный кризис, отрасли экономики, климатическая миграция, природные факторы, транснациональные особенности, международные и региональные организации, иммиграция, эмиграция, реэмиграция, депатриация.

Аннотация: Миграцию можно определить как социальное явление, характеризующееся своей сложностью и разнообразием. Обычно миграционные потоки перемещаются из стран с низкими показателями развития в относительно развитые регионы и страны с высокими социально-экономическими показателями (например, высокой ежемесячной заработной платой). Глобальное перемещение достигло рекордного уровня: 55 миллионов внутренне перемещенных лиц и 26 миллионов беженцев. Хотя международные мигранты составляют 3,6% населения мира, в разных странах их можно рассматривать по-разному. Например, количество иммигрантов в таких странах, как Саудовская Аравия, составляет 88 процентов населения.

Сегодня в международные миграционные процессы вовлечено более 281 млн человек, т.е. 3,6% населения земного шара, что в 3 раза больше, чем в 1990 г. (128 млн). Соответственно, мы считаем, что важно сосредоточить внимание на международной миграции как фактор, который напрямую влияет на демографическую динамику, рынок труда и социально-экономические процессы принимающих и отправляющих стран.

Сегодня массовый отток ИТ-специалистов из Беларуси и России вызывает беспокойство и в этих странах. Европейские страны не заинтересованы в ускорении потока беженцев на Ближний Восток и в Северную Африку. В связи с этим в 2015 году ЕС подписал соглашение с Турцией о задержании беженцев на территории Турции. В России трудовые мигранты служат для обеспечения отраслей экономики дефицитной дешевой рабочей силой. Ведь из-за закрытия границ в условиях пандемии COVID-19 экономика страны испытывала проблемы, связанные с нехваткой рабочей силы. В то же время мигранты также создают для России возможность оказывать давление на отправляющие страны. Поэтому миграция и ее последствия зависят от точки зрения этих стран.

KIRISH

Bugungi kunda xalqaro maydonda migratsiya oqimining shakllanishi turli sabablar urush, iqlim sharoiti, gumanitar inqiroz, etnik bosim va boshqalar orqali yuz berishi kuzatilmoqda. Shu boisdan, mazkur masala dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvining to‘g‘ri tashk il etilmasligi va nomaqbol siyosiy qarorlar natijasida davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning og‘irlashuvi migrantsion oqimlarning yanada faol harakatlanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu boisdan, u muhojirlarni qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

TADQIQOTNING USULLARI

Maqsad va vazifalar. Tadqiqotning maqsadi sifatida migratsiya muammosini xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish xususiyatlari, ularning siyosiy-tashkiliy asoslarining shakllanish tendensiyalari, davlatlararo munosabatlar doirasida migrations jarayonlarni tartibga solishning xalqaro va xorijiy tajribasini yoritish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Usullar: maqolada nazariy-metodologik, statistik tahlil va tizimlashtirish tamoyillari, shuningdek, qiyosiy, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR

Bugungi kunda jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy, geoiqtisodiy va ekologik jarayonlar sharoitida global miqyosdagi migratsiya muammosi yuzaga keldi. Boshqa tomondan tadqiqotchi Z.Qodirova ta'kidlaganidek, globallashuv jarayonlari, ilm-fan va axborot texnologiyalarining faol taraqqiyoti kishilarning dunyo mamlakatlari bo'ylab erkin harakatlanishi uchun tobora yangi va keng imkoniyatlar yaratmoqda¹.

BMT tomonidan ilgari surilgan prognozlarga ko'ra, 2050-yilga borib yer yuzasida aholi soni 9,7 milliardga, 2100-yilda esa 11 milliardga yetadi. Bugungi kunda jahon aholisining 61 foizi Osiyo mintaqasiga (4,7 mlrd), 17 foizi Afrika (1,3 mlrd) xissasiga to'g'ri keladi². Migratsion inqirozning aynan aholi zinch joylashgan mintaqalarda yuz berayotganligi kelgusida buning saqlanib qolishi ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotchi D.Muydinov ham migratsion jarayonlar xususida fikr yuritib, shunday deydi: "Migratsiya – insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, uzoq tarixga ega bo'lgan hadsiz-hududsiz jarayondir. Migratsianing millati yo'q. U umumbashariyat tendensiyasidir. Globallashuv jarayoni bilan ayniqsa migratsiya avvalgi davrplarga nisbatan misli ko'rilmagan dapajada optmoqda³.

Migratsiya muammosining kelib chiqish tarixi qadimgi davrga borib taqaladi. Taxminlarga ko'ra, ingлиз olimi Ravenshteyn tomonidan 1885-1889 yillarda migratsiyaga ilk bor ilmiy-nazariy jihatdan ta'rif berilgan. Unga ko'ra, migratsiya – kishilar yashash joyining doimiy yoki vaqtincha o'zgarishi bilan bog'liq hodisadir.

Tor ma'noda migratsiyaga hududiy ko'chishlarning tugallangan (to'liq) shakli sifatida, keng ma'noda esa, kishilarning ko'chib yurishi bilan bog'liq harakat sifatida ta'rif beriladi. Jahon amaliyotida odatda, migratsiya atamasi tor ma'noda qo'llaniladi.

Aholining ko'chishi bilan bog'liq jarayonda ikki muhim qoidaning amal qilishi talab etiladi:

- 1) aholining turli aholi punktlari orasida ko'chib yurishi;
- 2) mavjud harakatlar zamirida doimiy yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq jarayonlar kuzatilishi lozim.

Migratsiya tushunchasi. Ilmiy nuqtai nazardan migratsiya va u bilan bog'liq qator kategoriylar mohiyatini ochib beruvchi umume'tirof etilgan ta'riflar mavjud emas. Shunga ko'ra, ilmiy tadqiqotlarda migratsiya kategoriyasiga nisbatan turli xil ta'riflarni uchratish mumkin.

Migratsiya – bu aholining yashash va ishslash maqsadida birjoydan ikkinchi joyga ko'chishidir⁴. Ayni paytda, migratsiyaga oid ikki xil tushuncha mavjud, ya'ni ichki va tashqi (xalqaro) migratsiya. Ta'kidlash joizki, milliy davlat chegarasidan o'tib, xorijga chiqqan har qanday shaxs migrant hisoblanmaydi: turistlar, xizmat safarini uyushtirganlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Umuman olganda, "migratsiya" ko'p qirrali tushuncha bo'lgani bois, u ilmiy doirada turlicha talqin etiladi. Mazkur tushunchaning kelib chiqishi, lotincha "migratio" so'zi bilan bog'liq bo'lib, "ko'chish", "siljish" kabi ma'nolarni anglatadi⁵. Maxsus adabiyotlar tahlili, ushbu tushunchadan keng va tor ma'noda foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Keng ma'noda migratsiya davomiyligi, uzuksizligi va maqsadli ekanligidan qat'iy nazar, bir yoki bir necha ma'muriy-hududiy birliklar o'rasisida amalga oshiriluvchi hududiy ko'chishlarni anglatadi⁶.

¹ Қодирова З.А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Монография. –Т.: Иктиносидиёт, 2016. –Б.68.

² Народонаселение // <https://www.un.org/ru/global-issues/population> – кўрилган вақт 04.07.2022.

³Муйдинов Д. Миграцион жараёнларнинг жамият баркарорлигига таъсири: Монография. – Тошкент: ТДШУ, 2022.– Б. 21.

⁴ Wickramasinghe W. International migration and migration theories - January 2017.// Social Affairs: A Journal for the Social Sciences // Social Affairs. – 2017. – Vol. 1. – №. 5. – PP. 13-32. // URL: <https://www.researchgate.net/publication/312211237>

⁵ Ушакова Д. Толковый словарь русского языка.– Москва, 2000.– Т. 1. – С. 247.

⁶ Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987.– С. 26.

Tor ma'noda esa, doimiy yashash joyining o'zgarishi bilan yakun topgan hududiy ko'chish jarayoni tushuniladi⁷. Lug'atlarda ushbu atamaga turlicha ta'rif berilgan. Xususan, "Britannika ensiklopediyasi"da migratsiyaga "muayyan shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan yashash joyining yakuniy tarzda o'zgartirilishi" sifatida ta'rif beriladi⁸. Webster lug'atiga ko'ra, "migratsiyalashuv" deganda, "bir hududdan boshqasiga ko'chish" tushuniladi⁹.

Ichki migratsiya – muayyan bir davlat ichida turli sababalarga ko'ra, aholining u yoki bu mintaqaga vaqtinchalik yoki doimiy ko'chishi, joylashuvidir. Ichki migratsiya deganda, kishilarning bir davlat hududida joylashgan iqtisodiy-jug'rofiy yoki ma'muriy-hududiy birliklari o'rtasida ko'chib yurishlari tushuniladi. Ichki migratsiya ikki turga, ya'ni *qishloq* va *shahar* ahli migratsiyasiga ajratiladi. *Qishloq migratsiyasi* deganda, aholining doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida qishloqdan shaharga yoki bir qishloqning aholi punktidan boshqasiga ko'chishi tushuniladi. *Shahar migratsiyasida* esa, shahar ahlining doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida bir shahardan ikkinchisiga yoki qishloq joylarga ko'chib o'tishi tushuniladi. Shu o'rinda, bir shahar yoki qishloq hududidagi ko'chishlar migratsiya jarayoni sifatida qaralmasligini ta'kidlash joiz.

Xalqaro migratsiya – davlatlar, turli mintaqalar o'rtasida aholining ko'chishini anglatadi. Tashqi migratsiyaga *emigratsiya* va *immigratsiya* misol bo'la oladi. *Emigratsiya* deganda, doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida boshqa davlatga ko'chib o'tish tushuniladi va u aksariyat hollarda mazkur davlat fuqaroligini olish bilan bog'liq bo'ladi. *Immigratsiya* deganda esa, aksincha boshqa davlat fuqarolarining doimiy yoki vaqtinchalik asosda yashash maqsadida muayyan davlatga kirib kelishi tushuniladi va bunda aksariyat hollarda yangi fuqarolikni olish jarayoni amalga oshiriladi¹⁰. Shu o'rinda, *reemigratsiya* va *repatriatsiya* kabi tushunchalarga ham alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. *Reemigratsiya* deganda, shaxsning avval chiqib ketgan davlati hududiga qaytib kelishi tushuniladi. *Repatriatsiya* esa, shaxsning o'z etnik vataniga¹¹ qaytib kelishidir. Tashqi migratsiya davlat chegarasining kechib o'tilishi bilan xarakterlanib, ikki xil sinfga ajratiladi - qit'alararo va qit'aning ichki migratsiyasi. Qit'aning ichki migratsiyasi ham o'z navbatida ikkiga, ya'ni davlatlararo va makromintaqalar o'rtasida gi migratsiyaga ajratiladi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, biror mamlakatda bir yildan ortiq qolgan sayyooh bir qator davlatlardagi tegishli xizmatlar tomonidan migrant sifatida e'tirof etilsada, hech bir davlatda shaxsning rasman migrant maqomini olish uchun qancha muddat davomida qabul qiluvchi davlatda qolishi kerakligi borasida aniq qoida o'rnatilmagan. BMT mezoniga ko'ra, migratsiya xalqaro hisoblanishi uchun migrantning xorijda qolish muddati 1 yildan ortiq bo'lishi kerak¹².

Ilmiy jihatdan aholi migratsiyasi tushunchasiga nisbatan turli ta'riflar keltiriladi. Shunga ko'ra, bu borada bir qator olimlar tomonidan ilgari surilgan yonlashuvlarga nisbatan alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan, T.Zaslavskaya aholi migratsiyasiga yashash joyini o'zgartirish, ya'ni bir aholi punktidan boshqasiga ko'chib o'tishni o'z ichiga olgan jarayon sifatida ta'rif beradi¹³. Mazkur ta'rifda ish joyining manzili bilan bog'liq bo'lgan omil inobatga olinmagani bo'is, uni to'laqonli ta'rif sifatida baholab bo'lmaydi.

G.Vechkanov tomonidan ilgari surilgan ta'rifda mavjud omil hisobga olingan. Olim migratsiyani shaxsiy, jamoaviy hamda jamiyat manfaatlari bilan o'zaro uyg'un tarzda, yashash va ish joyini erkin

⁷ Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987. – С. 18.

⁸ Энциклопедия Британника // Британника // URL: <http://www.britannica.com/EBchecked/topic/275738/human-migration>.

⁹ Словарь Мерриам-Вебстер // Мерриам-Вебстер // URL: <http://www.merriam-webster.com/dictionary/migrate>

¹⁰ Матлин И. Моделирование размещения населения. – Москва, 1975.

¹¹ Etnik vatan deganda, shaxs o'z kelib chiqishini bog'laydigan xalq yashaydigan davlat hududi tushuniladi. Bunda, aksariyat hollarda, shaxs yoki uning ota-bobolari ilgari hijrat qilgan davlatlar na zarda tutiladi.

¹² Губина М. Мировая экономика и международные экономические отношения. – М.: Юрайт, 2017. – С. 234.

¹³ Тюркин М. Миграционная система России. Монография. – М.: Стратегия, 2005. – С.34.

ravishda o‘zgartirish sifatida ko‘radi¹⁴. Ammo, mavjud ta’rifda migratsiya natijasida kishilar orasida axloqiy va madaniy qadriyatlarining yemirilishi bilan bog‘liq ehtimoliy o‘zgarishlar hisobga olinmagan.

Axiezerning mavjud jarayonga nisbatan nazariy qarashlarida yuqoridagi omillar hisobga olingan bo‘lib, unga ko‘ra, aholi migratsiyasi - bu hayot tarzining muayyan elementi yoki faoliyat turi hisoblanadi. U o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zgaruvchan hamda aholi yoki muayyan ijtimoiy guruhlarning doimiy va vaqtinchalik ish va yashash joylarining o‘zgarishi, shuningdek, kishilarning majburiy ko‘chirilishi bilan xarakterlanuvchi qadriyatlarni o‘zida ifodalaydi¹⁵. Bizning fikrimizcha, mazkur ta’rif yuqoridagi omillarni to‘laligicha ifodalagan. Shunga qaramay, unda ham muayyan kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Zero, A.Akxezer migratsiyani hayot tarzining bir elementi sifatida baholaydi. Biz bu fikrga qo‘shila olmaymiz. Sababi, migratsiya - muayyan omillar zamirida yuzaga keladigan yakka tartibda yoki muntaзам ravishda kuzatiladigan hududiy ko‘chishda namoyon bo‘luvchi harakatdir.

Mahalliy olimlardan F.Parmanov, Sh.To‘raev, I.Daminov va Sh.Tog‘aevlarning fikricha, kamida bir yil yoki undan ko‘proq vaqt davomida o‘z vatanidan tashqarida faoliyat yuritgan shaxslarga nisbatan “migrant” atamasini qo‘llash o‘rinli hisoblanadi¹⁶.

L.Ribakovskiy migratsiya deganda, ko‘zlangan maqsad va manzilga yetib borish vaqtidan qat’iy nazar, kishilarning bir yoki bir necha ma’muriy-hududiy birliklarga tegishli bo‘lgan aholi punktlari o‘rtasidagi har qanday hududiy ko‘chishlarni nazarda tutadi¹⁷. Ushbu ta’rif nisbatan keng tarqalgan bo‘lsada, bunda ko‘chishdan ko‘zlangan maqsad migratsiyaning xususiyatini belgilashini hisobga olgan holda, keltirilgan ta’rifda ularning aks ettirilishi lozim deb hisoblaymiz.

V.Staroverov bu borada o‘z fikrini bildirib o‘tgan holda, migratsiyaga - bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan boshqasiga ko‘chish, shuningdek, o‘z manziliga qaytish yoki uni butkul o‘zgartirish bilan bog‘liq holda kishilarning jug‘rofiy makondagi mavqeining o‘zgarishi sifatida ta’rif beradi¹⁸. Aholi migratsiyasiga sabab bo‘luvchi omillar hamda migratsiyaning xususiyatini belgilab beruvchi maqsadlarga yetarlichcha e’tibor qaratilmaganligi bois, mazkur qarashga to‘laqonli ta’rif sifatida baho berib bo‘lmaydi.

Migrasiya jarayonining asosida ko‘plab o‘zaro farqli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, oilaviy va siyosiy sabablar mavjudligi tufayli umume’tirof qilingan migratsiya nazariyasi to‘g‘pisida universal bir konsepsiya kelish murakkab bo‘lmoqda. Shu bilan birqalikda, migratsiyaga oid nazariyalar migratsiya jarayonlari ro‘y berayotgan hududlar shart-sharoitlarini hisobga olmagan holda ilgari surilmoida¹⁹.

Bir so‘z bilan aytganda, “migratsiya”ga nisbatan zamonaviy qarashlar tahlili asosida, uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan yondashuvlarni asosan to‘rt turga ajratish mumkin:

Birinchidan, migratsiyaga nisbatan keng aholi ommasining davlatlar hududiy birligi doirasidagi ko‘chishi, shuningdek, muayyan ijtimoiy guruhlarning har qanday tashkiliy tuzilma doirasida harakatlanishi sifatida qaraladi²⁰. Ikkinchidan, migratsiyaga katta miqdordagi aholi oqimining yakuniy maqsadlaridan qat’iy nazar, hududiy siljishlari sifatida ta’rif beriladi. Uchinchidan, aholi ommasi yashash manzilining o‘zgarishi bilan xarakterlanuvchi jarayonni migratsiya sifatida qabul qilish mumkin. To‘rtinchidan, migratsiya deganda, kishilarning makon bo‘ylab harakatlanishi tushuniladi va bunda uning oqibati sifatida hudud bo‘ylab qayta taqsimot yuzaga keladi. Yuqoridagi fikrlar asosida “migratsiya” jarayonining quyidagi belgilarini aniqlash mumkin: hududiy chegaralardan o‘tish, yashash manzilining o‘zgarishi hamda davlatning alohida shaxslari tomonidan mazkur o‘zgarishlarning davomli kechayotgani kabilar shular jumlasidandir²¹.

¹⁴ Волох В. Трудовая миграция: политico-правовые и социально-экономические аспекты привлечения и использования иностранной рабочей силы. Монография. // М.: Спутник+, 2010. – С. 43.

¹⁵ Ахиезер А. “Полития” // Миграция в российской истории. – 2004. – №4. – СС. 41-48.

¹⁶ Парманов Ф., Тўраев Ш., Даминов И., Тогаев Ш. Миграция: Мусоғир ватангдолар//Монография. – Тошкент: Sano-standart, 2015. – Б.18.

¹⁷ Рыбаковский Л. Миграция населения (вопросы теории). – М.: ИСПИ РАН , 2003. – С 81.

¹⁸ Рошин Ю. Миграция населения и Россия. – М.: ГУУ, 2007. – С. 76.

¹⁹ Муйдинов Д. Миграцион жараёнларнинг жамият барқарорлигига таъсири: Монография. – Тошкент: ТДШУ, 2022. – Б. 6.

²⁰ Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987. – С.18.

²¹ Концепция государственной миграционной политики РФ на период до 2025 года (утв. Президентом РФ 13.06.2012 г.) // Сайт Президента РФ. // URL: <http://www.kremlin.ru/events/president/news/15635>.

Migrant - BMTning Xalqaro migratsiya tashkiloti (IMO) ta'rifi bo'yicha, xalqaro yoki davlat ichidagi chegarani kesib o'tgan va doimiy yashash joyini tark etgan shaxsdir. Bunda uning yuridik shaxs sifatidagi maqomi (1) ixtiyoriy yoki majburiy ko'chishi (2), ko'chish sabablari (3) va qolish muddati (4) hisobga olinmaydi²².

Ilmiy tadqiqot doirasida "migratsion jarayon" atamasining zamonaviy talqiniga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Migratsion jarayon, migratsiyadan farqli o'laroq, huquqiy asoslardan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra, migratsion jarayon izchil va qonuniyatlarga asoslangan bo'lishi, uning har bir bosqichi esa, qonuniy tartibga solish predmetiga aylanishi darkor.

Migratsion jarayonlarning siyosiy asoslari tobora e'tiborga molik bo'lib borayotgan sharoitda, siyosiy fan vakillari tomonidan ulami ilmiy jihatdan tahlil qilishga bo'lgan qiziqishning ortishi tabiiy. Shu bois, bir qator ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, bunda migratsion jarayonlarning xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi siyosatga, shuningdek, millatlararo munosabatlarga ta'siri hamda siyosiy barqarorlik masalalari tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qilgan. Mazkur mакtab vakillari, migratsion jarayonlar global miqyosdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatishi borasidagi xulosalarga keladilar. Shu o'rinda, mazkur ta'sir doirasi turlicha ekanligi haqida to'xtalib o'tish joiz.

Migratsiyaning vujudga kelish sabablari. Bugungi kunda migratsiyaning vujudga kelishi sabablarini turlicha asoslash mumkin. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda migrantlar soni 272 million kishiga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017-yilga nisbatan 14 millionga ko'p. 2000-yilda dunyoda 173 millionga yaqin muhojir bo'lgan. Biroq, jahon aholi sonining oshishi hisobiga xalqaro migrantlarning umumiy ulushida so'nggi o'n yilliklarda keskin o'zgarish kuzatilmadi: 2017-yilda 3,4%, 2000-yilda 2,8% va 1980-yilda 2,3%. Bugungi kunda jahonda majburiy ko'chirilganlarning umumiy soni 70 million kishini tashkil etib, ularning sirasiga 26 million qochoq, 3,5 million boshpana izlovochi va 41 milliondan ortiq ichki ko'chirilganlarni kiritish mumkin²³.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, migratsiya tushunchasiga nisbatan quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Migratsiya - kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini o'zgartirish maqsadida hududiy birliklarning chegara hududlari bo'ylab yakk a tartibdagi yoki muntazam hududiy ko'chishlari bilan xarakterlanuvchi murakkab jarayondir.

Aholi migratsiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) ko'chish bilan bog'liq jarayonni o'z ichiga oluvchi tayyorgarlik bosqichi;
- 2) yangi hayot tarziga moslashish bosqichi²⁴.

Muhojirlarning yangi hayot tarziga moslashuvi bilan bog'liq jarayonni uch turga ajratish mumkin:

- ijtimoiy-demografik muhitga moslashish;
- katta shaharlarga ko'chish uchun muhim bo'lgan moslashish;
- tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashish.

Yuqorida sanab o'tilgan migratsion bosqichlar kishilarning yangi hayotga moslashuvini belgilab beruvchi muhim jarayonlar hioblanadi.

Migratsiya tushunchasiga berilgan ta'riflarning aksariyat qismida unga kishilarning hududlar bo'ylab harakatlanishi bilan bog'liq holda izoh keltiriladi. Ammo, migratsiya aholining harakatlanishi bilan bog'liq yagona faoliyat turi emas. Shu boisdan, migratsiyani boshqa faoliyat turlaridan farqlash maqsadida, uning o'ziga xos xususiyatlari xususida to'xtalib o'tamiz.

V.Borisov kishilarning hududlar bo'ylab harakatlanishini ikki asosiy turga ajratib ko'rsatadi²⁵. Aholi orasidagi tabiiy harakatlanish tug'ilishlar va o'lim holati, nikoh va ajrim ko'rsatkichlari, shuningdek, yosh kategoriyasi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan tarkibiy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Mavjud tasnif aholining harakatlanishiga sabab bo'luvchi omillami to'la qamrab olmagani bois, biz uni takomiliga yetgan deya olmaymiz.

²² Халқаро миграция ташкилотининг расмий сайти // URL.: <https://www.un.org/ru/global-issues/migration>

²³ Миграция // URL.: <https://www.un.org/ru/global-issues/migration>

²⁴ Рыбаковский Л.Л. Миграция населения. Вып. 5: Стадии миграционного процесса. - М., 2001.

²⁵ Борисов В. Демография. – М.: NOTABENE, 2001.– С. 12.

I.Matlin aholining demografik, hududiy, tarmoqlararo va kasbga doir harakatlanishini alohida ajratib o‘rgangan²⁶. Keltirilgan ta’rifga ko‘ra, aholining hudud bo‘ylab harakatlanishini migratsiya sifatida baholash mumkin. Olimning fikricha, harakatlanish bilan bog‘liq boshqa barcha faoliyat turlari kishilarning kasbiy faoliyati hamda muhim demografik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq. I.Matlarning tasnifida aholining vertikal tarzdagи ijtimoiy mobilligi (ijtimoiy mavqedagi o‘zgarishlar, bilim darajasi va h.k.lar)ga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shu boisdan, G.Kasperovich tomonidan ilgari surilgan tasnifga to‘xtalib o‘tamiz. Unga ko‘ra, aholi migratsiyasini hududiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy harakat sifatida o‘rganish lozim²⁷.

2019-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, 272 milliondan iborat xalqaro migrantlarning 48 foizi ayollar, 38 millionga yaqini bolalar, 4,4 millioni xalqaro talabalar va 164 millioni mehnat muhojirlaridan iborat bo‘lgan bo‘lib, shundan 75 foizini mehnatga layoqtli yoshdagi (20-64 yosh) shaxslar tashkil etgan. 2020 yilga kelib, muhojirlarning umumiyo soni 281 millionga yetgan va bu borada ayollarning ulushi 48,1 foiz (135 million), erkaklarning ulushi esa, 51,9 foizni (146 million) tashkil etgan. Shundan 169 millioni mehnat migrantlaridan iborat bo‘lgan hamda ularning orasida bedarak yo‘qolgan va halok bo‘lganlarning umumiyo soni 3900 kishiga yetgan. Ayni paytda, dunyo muhojirlarining qariyb 31 foizi Osiyoda, 30 foizi Yevropada, 26 foizi Amerikada, 10 foizi Afrikada va 3 foizi Okeaniyada istiqomat qiladi²⁸.

Jalb qiluvchi va majbur qiluvchi omillar (Push/Pull factors). Migratsiyaga sabab bo‘luvchi asosiy omil sifatida iqtisodiy va siyosiy omillar hamda tabiiy ofatlarini keltirish mumkin. Amerika lik olimlar Sintxia Bansak, Nikol Simpson, Madelin Zavodniylarning “The Economics of Immigration” (“Immigratsiya iqtisodiyoti”) nomli monografiyasida migratsiyaga ta’sir etuvchi omillar iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilingan (**1-illova: 1.1.1.-jadval**)²⁹.

Rossiyalik tadqiqotchi P.Abdulmanapov migratsiya jarayonlarining vujudga kelish sabablari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- **tabiiy omillar** (iqlim, landshaft, ekologiya va tabiiy shart-sharoitlar). Bugungi kunda global muammoga aylangan iqlim o‘zgarishlari: qurg‘oqchilik, iqlimning isishi, cho‘llanishning ortib borishi, suv toshqinlari va shu kabilarda namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, bugungi kunda ilmiy terminologiyada “ekologik migratsiya” (environmental migration, climate migration)³⁰ atamasi mavjud bo‘lib, bunda tabiiy ofatlar natijasida aholining o‘z yashash joylarini doimiy yoki vaqtinchalik tark etishga majbur bo‘lishi nazarda tutiladi. Iqlim migratsiyasi bilan bog‘liq xavotirli tahminlar ham kun sayin ortib bormoqda. Jumladan, 2018 yilda Jahon banki tomonidan olib borilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, jahoning uch mintaqasi, ya’ni Lotin Amerikasi, Sub-Saxara Afrikasi va Janubi-Sharqiy Osiyoda 2050 yilga kelib, 143 million iqlim migrantlari vujudga kelishi tahmin qilingan³¹.

Hozirda tabiiy ofat natijasida aholi ko‘chishga majbur bo‘lgan mintaqalarda yirik gumanitar inqirozlar vujudga kelmoqda. Mavjud holat iqlim va xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish zaruratinini yanada oshirmoqda. “The Center for American Progress” tahiliy markazi asoschisi Jon Podestaning e’tiroficha, iqlim va xavfsizlik bo‘yicha ekspertlar ko‘p hollarda Suriyadagi 2011 yilgi fuqarolar urushiga qadar sodir bo‘lgan kuchli qurg‘oqchilik oqibatlarini tilga oladilar. U xavfsizlik hamjamiyati, shuningdek, iqlim o‘zgarishi va terrorizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik xususida to‘xtalib, bu borada bir qator misollar keltiradi. Xususan, qishloq xo‘jaligi va chorva mollari mahsulotlarining keskin qisqarishi Al-Qoida tomonidan moliyaviy jalb qilish strategiyalarining samaradorligiga ta’siri bilan bog‘liq ekanligini e’tirof etadi³².

- **iqtisodiy omillar** (turmush darajasi, bandlik darajasi va ishsizlik, mehnat sharoitlari, mehnat faoliyati mazmuni va xususiyatlari, ish haqi, ta’lim, turmush tarzi va yashash sharoitlari, iqtisodiy -

²⁶ Бондырева С. Миграция (сущность и явление). – Воронеж: МОДЭК, 2004. – С. 35.

²⁷ Глущенко Г. Миграция и развитие. – М.: Экономика, 2009. – С. 65.

²⁸ Key facts about recent trends in global migration. December 16, 2022 // <https://www.Pewresearch.org/fact-tank/2022/12/16/key-facts-about-recent-trends-in-global-migration/>

²⁹ Bansak C., Simpson N., Zavodny M. The Economics of Immigration. – Oxford: Routledge, 2020.

³⁰ Карапнг. Glossary on Migration // © 2019 International Organization for Migration 1 Geneva 19 Switzerland. – P.65. (IOM) // URL: https://environmentalmigration.iom.int/sites/g/files/tmzbdl1411/files/im1_34_glossary.pdf

³¹ John Podesta. The climate crisis, migration, and refugees - July 25, 2019// URL: <https://www.brookings.edu/research/the-climate-crisis-migration-and-refugees/#footnote-3> - July 25, 2019

³² John Podesta. The climate crisis, migration, and refugees - July 25, 2019// URL: <https://www.brookings.edu/research/the-climate-crisis-migration-and-refugees/#footnote-3> - July 25, 2019

ijtimoiy siyosat va b.q.). Ilmiy adabiyotlarda aksariyat hollarda mavjud omil globallashuvning avj olishi hamda davlatlar milliy iqtisodiyotining integratsiyalashuvi bilan bog‘liq jarayon sifatida ta’riflanadi. Bundan tashqari, migratsiyaning iqtisodiy sabablarini davlatlararo erkin savdo shartnomalarining tuzilishi bilan ham bog‘lash mumkin. Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA), Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi kabilar faoliyati yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi³³.

Iqtisodiy omillar xalqaro migratsiyaning *asosiy drayveri* bo‘lib, xalqaro mehnat uning ko‘rinishlaridan biri sifatida migrasion jarayonlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Migratsiya muammosiga oid mumtoz nazariya asoschilaridan biri bo‘lgan Ernest Ravenshteynning fikricha, nomaqbul va zo‘ravonlikka asoslangan qonunlar, soliq yukining yuqoriligi, noqulay iqlim sharoitlari, nomuvofiq ijtimoiy muhit (qullar savdosi, deportatsiya) kabilar migratsiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Ammo ularning hech birini migratsion oqimlar bilan taqposlab bo‘lmaydi. Zero, bunda ko‘pchilikka xos bo‘lgan o‘z moliyaviy ahvolini yaxshilash istagi ustunlikka ega bo‘ladi³⁴.

Tadqiqotchi Z.Qodirova ta’kidlaganidek, xalqaro mehnat migratsiyasi mehnat resurslarining daromad topish yoki o‘z daromadlarini yanada orttirish maqsadida o‘z qobiliyati, malaka va ko‘nikmalarini davlat hududidan tashqariga sotishdir³⁵. Bazning fikrimizcha, mazkur ta’rifni biroz to‘ldirish yo‘li bilan, o‘z kuchini sotish masalasini ham kiritish lozim. Bunda migrantlarning mutaxassisligi, bilim va ko‘nikmalari nazarda tutiladi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2020-yil yakunlari bo‘yicha taqdim etgan hisobotida keltirilishicha, so‘nggi 30 yilda iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan davlatlarga kirib kelgan migrantlarning umumiyligi ulushi ushbu davlatlar aholisining 4 foizidan 9 foizgacha ko‘paydi. Mavjud holat mahalliy aholi orasida ijtimoiy-siyosiy noroziliklami keltirib chiqardi³⁶. Muhojirlarning rivojlangan davlatlarga intilishidan ko‘zlangan maqsad, qulay iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishdan iborat. Ilmiy doirada mavjud jarayonga tavsif berishda “iqtisodiy migratsiya” (“economic migration”) atamasidan keng foydalanildi³⁷.

- **demografik omillar** (muayyan yoshga doir kategoriyaga erkak va ayollar soni o‘rtasidagi nomutanosiblik; aholining yoshga doir tarkibiy xususiyatlari; migratsion harakatlar o‘z xususiyatiga ko‘ra, o‘zidan keyingi migratsiyani rag‘batlantirishga xizmat qiladi). Migratsion oqimlar qabul qiluvchi davlatning demografik holati va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Migratsiya muammosi bilan shug‘ullanuvchi amerikalik taqiqotchi olim N.Simpsonning fikricha, har bir migrant demografik xususiyati, ya’ni yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, ta’lim darajasi va shu kabilarga ko‘ra o‘ziga xosdir. Mehnat muhojirlarining katta qismini kutilgan natijaga erishish uchun yetarli kuch va imkoniyatga ega bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Yoshlardan iborat muhojirlar aksariyat hollarda “demografik qarish” kuzatilayotgan davlatlar tomon harakatlanadilar. Odatta, mehnat muhojirlari mehnatga layoqatli yoshdagagi erkaklardan iborat bo‘ladi, ammo so‘nggi yillarda horijda ish izlayotgan migrantlar oqimi chet elda ish izlayotgan ayollar va oilalardan iborat bo‘lib qolmoqda. Migratsion

³³ Логунова Ю. Социально-экономические последствия международной миграции населения// Научно-методический журнал “Концепт”. – 2018.–№ 10 (октябрь). – 0,5 п. л. // URL.: <http://e-koncept.ru/2018/183066.htm>.

³⁴ Ravenstein E. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1985. – Vol.2. – № 48. – PP. 167-235

³⁵ Кодирова З. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Монография. –Т.: Иқтисодиёт, 2016. – Б. 70.

³⁶ Zsoka K., Giovanni P., Magali P., Rozhkov D. The Impact of International Migration on Inclusive Growth: A Review – P.4. // IMF Working Paper WP/21/88 / © 2021 International Monetary Fund. // URL.: <https://www.imf.org › wpiea2021088-print-pdf>

³⁷ Zsoka K., Giovanni P., Magali P., Rozhkov D. The Impact of International Migration on Inclusive Growth: A Review – P.5. // IMF Working Paper WP/21/88 / © 2021 International Monetary Fund. // URL.: <https://www.imf.org › wpiea2021088-print-pdf>

jarayonlaming kechishida muhojirlarning oilaviy ahvoli ham muhim o‘rin tutadi. Zero, odatda, turmush qurbanlar mustaqil ravishda ko‘chib ketishlari va uylariga tezroq qaytishlari ehtimoli yuqori bo‘ladi³⁸.

- **etnik xususiyatlar** (tilning o‘ziga xosligi, turmush tarzi, moddiy va ma’naviy madaniyatni, urfodatlari). Bularning bari migrantsion jarayonlarning intensivligi hamda doimiy migrantlardan iborat aholi punktlarining mahalliy etnik qatlam bilan o‘zaro yaqinlashuviga ta’sir qiladi. Agar muhojirlar bilan retseptient davlat aholisi o‘rtasida ijobjiy muhit o‘rnatisa, qadariyatlar o‘zaro mos kelsa, navbatdagi tashrif buyuruvchi migrantlar uchun imkoniyat eshiklari ochiladi.

- **ijtimoiy-psixologik omillar** (ma’lum bir hududda yashovchi aholi qatlamiga muayyan turdagini imtiyoz va qulayliklar yaratilganligi). Mavjud holat boshqa aholi qatlamini mazkur hududlarga ko‘chishga undaydi.

Shu bilan birga, migrantsion jarayonlarga **siyosiy** va **harbiy omillar** ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. So‘nggi yillarda davlatlar o‘rtasidagi nizolar va qurolli to‘qnashuvlaming avj olishi, aholini ommaviy tarzda o‘z yashash joylaridan ko‘chishga majbur qilmoqda. Ukraina, Iroq, Suriya, Afg‘oniston va Liviya atrofidagi siyosiy vaziyat global miqyosdagi migrantlar oqimini shakllantirmoqda. BMTning Qochoqlar bo‘yicha Oliy komissarligi (UNHCR)ning 2022-yil 24-dekabrdagi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 24-fevralida Ukrainianada boshlangan qurolli nizo natijasida Yevropa hududiga 6,2 milliondan ortiq qochoq o‘tgan³⁹. UNHCRning 2022-yil 22-avgustdagagi ma’lumotlariga tayangan holda, nemis axborot xizmati tomonidan taqdim etilgan xabarga ko‘ra, Ukraina aholisining uchdan bir qismi urush oqibatida doimiy yashash joylarini tark etgan⁴⁰.

Migratsiyani vujudga keltirgan omillar bilan bog‘liq holda migratsiyani turlicha tasniflash mumkin. Xususan, migratsiyaning jug‘rofiy va tarkibiy xususiyati, davomiyligi, maqsadi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, bu boradagi chekllovlar, muhojirlarning malakasi va yuridik mavqeiga ko‘ra, ularni turli guruhlarga ajratish mumkin⁴¹.

Migratsiya tasnifi. Migratsiyaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borgan niderlandiyalik tadqiqotchi Roel Jennissenning “Yevropadagi xalqaro migrantlarning makroiqtisodiy determinanstlari” nomli monografiyasida migratsiyaning besh asosiy turi ajratib ko‘rsatilgan⁴²:

1) mehnat migratsiyasi (labour) – bu bevosita ishlashni maqsad qilgan migratsiya turi bo‘lib, uni ham o‘z navbatida yuqori malakali va malakasiz mehnat sub migratsiyasiga ajratish mumkin.

2) oila migratsiyasi (family) – bunda turmush qurish va oila a’zolarining o‘zaro jipslashuvni nazarda tutiladi. Ushbu jarayon ikki davlat fuqarolarining o‘zaro turmush qurishi hamda oila a’zolaridan biri migrant bo‘lgani holda, yaqinlarining uning yoniga ko‘chib o‘tishi kabilarda namoyon bo‘ladi.

3) qaytish migratsiyasi (return), ya’ni xorijda istiqomat qiluvchi mehnat muhojirlarining o‘z vataniga qaytishi. Bu jarayon ilmiy manbalarda qaytish migratsiyasi sifatida tilga olinadi.

4) etnik migratsiya (ethnic) - turli xalqlarning o‘z tarixiy Vatanlariga qaytishi bilan belgilanadi. Sobiq Ittifoq hududida koreys millatlarining Koreya Respublikasiga ko‘chishi, yahudiylarning Isroi davlatiga qaytishi kabilar bunga misol bo‘la oladi. 1980-yillarda G‘arbiy Germaniyaga Polshadan 633 ming, Sobiq Ittifoq hududidan 177 ming, Ruminiyadan 151 ming nemis millatiga mansub aholi o‘rtga qaytgan⁴³.

5) boshpanaga ega bo‘lish maqsadidagi migratsiya (asulym). Bu atama odatda beqaror vaziyatlarda boshpanaga ega bo‘lish maqsadida ko‘chishga majbur bo‘lgan qochoqlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Migratsiya oqibatlari. Migratsiya bilan bog‘liq tadqiqotlarda migratsiyaning oqibatlariga doir turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ularni ijobjiy va salbiy jihatlarga ajratish mumkin. Albatta

³⁸ Nicole B. Simpson. Demographic and economic determinants of migration IZA World of Labor | July 2022 // URL.: <https://wol.iza.org/articles/demographic-and-economic-determinants-of-migration/long>

³⁹ Сколько беженцев из Украины в Европе на сегодня 24 December 2022 // URL.:

<https://www.unhcr.org/asia/news/press/2022/6/62a0c6d34/unhcr-updates-ukraine-refugee-data-reflecting-recent-movements.html> -

⁴⁰ ООН: Почти треть украинцев стали беженцами // URL.: <https://www.dw.com/ru/oon-pocti-tret-ukraincev-stali-bezencami/a-62894395> - 23.08.2022

⁴¹ Кодирова З.А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Монография. –Т.: Иқтисодиёт, 2016. –Б.70

⁴² Jennissen R. Macro-economic Determinants of International Migration in Europe. Monograph. –Amsterdam, 2004: Dutch University Press. –P.8.

⁴³ Jennissen R. Macro-economic Determinants of International Migration in Europe. Monograph. –Amsterdam: Dutch University Press, 2004. – P.17.

migratsiyaning oqibatlari migrantlar uchun donor va retsepient davlatlar uchun ahamiyati nuqtai nazaridan uch o‘lchamda baholanadi.

Xalqaro migratsiya sohasida tadqiqot olib borgan bir qator tadqiqotchilar xalqaro migratsiya, xususan mehnat migratsiyasidagi eng katta salbiy oqibat sifatida “aqlarning oqib ketishi”ni keltirganlar. Bu borada aksariyat mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida so‘z yuritilgan. Tadqiqotchi Z.Qodirovaning fikricha, “aqlarning oqib ketishi” yuqori malakali va salohiyatl mutaxassis (tadqiqotchi, aspirant)larning qaytmaydigan emigratsiyasi bo‘lib, donor davlatlarda ularni imkon qadar o‘z vatanida olib qolishga qaratilgan siyosat yuritiladi⁴⁴.

Rssiyalik tadqiqotchisi P.Abdulmanapovning fikricha, “aqlarning oqib ketishi” malakali ishchi kuchini yo‘qotishga sabab bo‘ladi va bu mamlakat aholisiga, bozor va oila institutiga salbiy ta’sir qila di. Natijada ijtimoiy keskinlikning kuchayishi, uzoq muddatli mehnat eksportiga yo‘naltirilganligi milliy iqtisodiyotning kelajagiga nisbatan ishonchszilik kayfiyatini oshiradi. Shu bilan birga, yuqori malakali mutaxassislarning chet elga ommaviy ravishda ko‘chishi xalqaro savdo kontekstida yuboruvchi davlatlar raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi. Hozirda rivojlanayotgan davlatlarning mehnat bozorida tibbiyot xodimlari va muhandislariga bo‘lgan talab tobora ortmoqda.

Rossiyalik tadqiqotchi A.Rameyeva o‘zining “Xalqaro mehnat migratsiyasi tizimida malakali kadrlarning o‘rni va roli” mavzuidagi dissertasiyasida “aqlarning oqib ketishi”ning salbiy oqibatlari ilmiy maktablar va oliv o‘quv yurtlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlashga sarflangan mabla g‘ va vaqtning yo‘qolishi, milliy sanoatga iqtisodiy zarar yetkazishi haqida xulosaga kelgan⁴⁵.

Migratsiya oid nazariyalar tavsifi. Migratsiya oid keng ko‘lamli tadqiqotlarni dastlab Ravenvshteyn boshlab bergan bo‘lib, bugungi kunga kelib, bu borada keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarni bir necha yo‘nalishda tasniflash mumkin. Jumladan mahalliy tadqiqotchi D.Rasulova migratsiya bo‘yicha tadqiqotlarni to‘rt asosiy guruhga ajratib ko‘rsatgan:

- 1) Klassik (mumtoz) maktab (Y.Ravenshteyn va Y.Lii)
- 2) Neoklassik mакtab (M.Todaro va L.Maruko)
- 3) Yangi iqtisodiy migratsiya nazariyasi (D.Messi, K.Espinova, Dj.Teylor, Ye.Vinogradova)
- 4) Neoklassiklar (D.Xarris va M.Todaro). Migratsiyaning makroiqtisodiy nazariyasi⁴⁶.

Migratsiya muammosining tobora avj olishi, so‘nggi yillarda uning asosiy tadqiqot obyektiga aylanganishiga turtki bo‘ldi desak, xato bo‘lmaydi. Nazariy jihatdan migratsiya nazariyasi ijtimoiy soha doirasida rivojlanmoqda. Shu bois, migratsiya nazariyasini o‘rgangan holda, tadqiqot ishida uning ijimoiy masalalar bilan bog‘liq jihatlarini alohida ajratib olish murakkab kechmoqda. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, keng qamrovli va yagona mohiyatga ega bo‘lgan universal migratsiya nazariyasini shakllantirish imkoniyati mavjud emas. Zero, migratsiya turli ijtimoiy hodisalarini o‘zida qamrab olgan murakkab jarayondir⁴⁷.

Buxarest iqtisodiy tadqiqotlar akademiyasi tadqiqotchisi Adrian Otoi o‘z tadqiqot ishida xalqaro migratsiya nazariyasini belgilovchi bir qator nazariy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, xalqaro migratsiya nazariyasini belgilovchi quyidagi nazariy oqimlar mavjud:

- sotsiologik oqim;
- makroiqtisodiy oqim;
- mikroiqtisodiy oqim;
- geografik oqim⁴⁸.

Mazkur oqimlarning barchasi migratsiya mohiyatini ochib berishda ma’lum bir omilga nisbatan ustuvorlik asosida yondashadi.

XULOSA

⁴⁴ Кодирова З. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашви.

Монография. –Т.: Иктисадиёт, 2016. – Б.68.

⁴⁵ Рамеева А. Место и роль квалифицированных кадров в системе международной трудовой миграции // автореферат дисс.: к.э.н. – М., 2008. – С.25.

⁴⁶ Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишинг назарий асослари. – Монография. – Т., 2010. – Б.38.

⁴⁷ Hein de Haas. A theory of migration: the aspirations-capabilities framework // Comparative migration studies. – 2021. – PP. 1-35. 24 February 2021.// URL:

<https://comparativemigrationstudies.springeropen.com/track/pdf/10.1186/s40878-020-00210-4.pdf>

⁴⁸ Adrian Otoi. Getting your Migration Analysis Together by Integrating Internal and International Migration // Procedia - Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Vol. 149. – PP. 685-690 // URL:

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042814049672>

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, migratsiya bu kishilarning muayyan sabablarga ko‘ra, bir martalik asosda yoki muntazam ravishda doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini o‘zgartirish maqsadida davlat chegaralari bo‘ylab hududiy ko‘chishlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos murakkab jarayondir.

1. Aholining hudud bo‘ylab harakatlanishining uch asosiy turi mavjud: tabiiy, migratsion va ijtimoiy. Bunda, aholining harakatlanishi bilan bog‘liq migratsiya turi asosiy o‘rinni egallaydi. Zero, u aholining tabiiy (aholi tarkibi, ya’ni soni, o‘rtacha yoshi va boshqa demografik ko‘rsatkichlari) va ijtimoiy (aholining bandlik darajasi, ish joyining o‘zgarishi va boshqalar) harakatiga to‘g‘ridan-to‘g‘rita’sir ko‘rsatadi.

2. Migratsiya selektiv, jarayonni tezlashtiruvchi hamda aholini qayta taqsimlash kabi funksiyalarini amalga oshiradi. Migratsiyaning mohiyati uning funksiyalarida aks etuvchi turli migratsion ko‘chishlarda namoyon bo‘ladi.

3. Migratsiya quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi: jug‘rofiy belgilari, amal qilish muddatiga, ixtiyorilik omilining mavjudligiga, migratsiya jarayonlarining boshqarilishi darajasiga, kelib chiqish sabablariga hamda ko‘chishlarning qonuniy assoslariiga ko‘ra tasniflanadi.

4. Noqonuniy migratsiya mavjud voqe’liklar ichida eng xavflilaridan biri hisoblanadi. Bunda davlat chegaralari qonunga xilof ravishda kesib o‘tiladi. Noqonuniy migratsiyani yuzaga kelish sababları sifatida: - xorijiy davlat hududida noqonuniy asoslarda mavjud bo‘lish (davlat ro‘yxatidan o‘tmaslik yoki vizaning muddati o‘tganligi) yoki davlatga kirish chog‘ida ma’lum qilingan maqsadlarga zid bo‘lgan faoliyat turi bilan shug‘ullanish kabilarni keltirish maqsadga muvofiq.